ISSN 2181-2764
2026

SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-I6-I3-19 Pages: 192-200

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERBS EXPRESSING PSYCHOLOGICAL STATES IN THE ARABIC LANGUAGE

Ikrom Y. Bultakov
Associate professor, Candidate of Philological Sciences
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
bultakov68@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

Xadicha B. Komilova
Master's student
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
kamilovaxadicha65@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: arabic language, state verbs, psychological state, lexical-semantic classification, psychological state verbs, positive attitude, negative attitude, semantic group, verb semantics, prepositional constructions.

Received: 08.05.26
Accepted: 09.05.26
Published: 10.05.26

Abstract: This article analyzes the lexical-semantic features of verbs expressing psychological states in the Arabic language. The study examines the role of state verbs in Arabic, their semantic groups, their classification into positive and negative attitudinal meanings, and their grammatical characteristics. Particular attention is given to the internal semantic structure of psychological state verbs, their synonymic and antonymic relations, their combinability with prepositions, and their functional-semantic potential in speech. The research is based on descriptive, semantic, and comparative methods. As a result, Arabic verbs denoting psychological states are classified into groups expressing positive and negative attitudes, while their place in the lexical system and their grammatical features are clarified. The findings of the study contribute to the theoretical description of state verbs in Arabic linguistics and are of practical significance for comparative lexicology, semasiology, and methods of teaching Arabic.

ARAB TILIDA RUHIY HOLATNI ANGLATUVCHI FE'LLARNING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI

Ikrom Y. Bultakov
Dotsent, filologiya fanlari nomzodi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
bultakov68@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

Xadicha B. Komilova
Magistratura talabasi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
kamilovaxadicha65@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so’zlar: arab tili, holat fe’llari, ruhiy holat, leksik-semantik tasnif, psixik holat fe’llari, ijobiy munosabat, salbiy munosabat, semantik guruh, fe’l semantikasi, predlogli birikmalar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilida ruhiy holatni anglatuvchi fe’llarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda holat fe’llarining arab tilidagi o‘rni, ularning semantik guruhlari, ijobiy va salbiy munosabat ifodalovchi turlari hamda grammatik xususiyatlari yoritiladi. Xususan, psixik holatni bildiruvchi fe’llarning ichki semantik tarkibi, sinonimik va antonimik munosabatlari, predloglar bilan birikish xususiyatlari hamda ularning nutqdagi funksional-semantik imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot tavsifiy, semantik va qiyosiy metodlar asosida olib borildi. Natijada arab tilidagi ruhiy holat fe’llari mazmuniy jihatdan ijobiy va salbiy munosabat ifodalovchi guruhlarga ajratildi, ularning leksik tizimdagi o‘rni hamda grammatik belgilariga aniqlik kiritildi. Tadqiqot natijalari arab tilshunosligida holat fe’llarining nazariy tavsifini boyitish, qiyosiy leksikologiya, semasiologiya va arab tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ГЛАГОЛОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПСИХИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Икром Ю. Булатаков
Доцент, кандидат филологических наук
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
bultakov68@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

Хадича Б. Комилова
Магистрант
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
kamilovaxadicha65@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабский язык, глаголы состояния, психическое состояние, лексико-семантическая классификация, глаголы психического состояния, положительное отношение, отрицательное отношение, семантическая группа, семантика глагола, предложные конструкции.

Аннотация: В данной статье анализируются лексико-семантические особенности глаголов, выражающих психическое состояние в арабском языке. В исследовании рассматриваются место глаголов состояния в арабском языке, их семантические группы, разновидности, выражающие положительное и отрицательное отношение, а также их грамматические особенности. Особое внимание уделяется внутренней семантической структуре глаголов психического состояния, их синонимическим и антонимическим отношениям, особенностям сочетаемости с предлогами и их функционально-семантическим возможностям в речи. Исследование выполнено на основе описательного, семантического и сравнительного методов. В результате глаголы, обозначающие психическое состояние в арабском языке, классифицированы на группы, выражающие положительное и отрицательное отношение, а также уточнены их место в лексической системе и грамматические признаки. Результаты исследования имеют важное значение для теоретического описания глаголов состояния в арабском языкознании, а также для сравнительной лексикологии, семасиологии и методики преподавания арабского языка.

Kirish. Arab tili semantik tizimida fe’llar muhim grammatik va leksik birlik hisoblanadi. Fe’llar odatda harakatni bildiruvchi birlik sifatida qaralsa-da, arab tilida subyektning holatini ifodalovchi fe’llar ham keng uchraydi. Bunday fe’llar lingvistik adabiyotlarda holat fe’llari deb yuritiladi. Holat fe’llari subyektning harakatini emas, balki uning ichki yoki tashqi holatini ifodalaydi. Masalan, arab tilidagi خافَ (qo‘rqdi), أحبَّ (sevdi), مرضَ (kasal bo‘ldi), فرِحَ (xursand

bo‘ldi) kabi fe’llar subyektning ruhiy yoki jismoniy holatini bildiradi. Arab tilshunosligida fe’llarning semantik tasnifi bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, arab tilidagi fe’llarning semantik tizimi, ularning ma’no guruhlari va funksional xususiyatlari klassik arab grammatikasi hamda zamonaviy lingvistika doirasida tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab tilidagi fe’llarning semantik tasnifi masalasi arab grammatikasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Klassik arab tilshunoslari fe’llarning grammatik va semantik xususiyatlarini chuqur o‘rganib, arab tilining fe’l tizimini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Jumladan, mashhur arab grammatikasi asoschilaridan biri bo‘lgan Sibavayhiy o‘zining “Al-Kitab” asarida fe’llarning grammatik va semantik xususiyatlarini keng tahlil qilgan. Mazkur asar arab tilshunosligida eng muhim grammatik manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, arabshunos V.N. Zaritovskaya o‘z maqolasida arab tilidagi holat fe’llarining leksik-semantikasini chuqur tahlil qilib, guruhlarga ajratadi.

Mazkur tadqiqot jarayonida tavsifiy, semantik va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar arab tilidagi holat fe’llarining leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning tasnifini ishlab chiqish imkonini berdi.

Natijalar. Arab tili grammatik tizimida fe’l kategoriyasi nafaqat morfologik va sintaktik jihatdan, balki chuqur semantik mazmuni bilan ham ajralib turadi. Fe’l orqali ifodalanadigan ma’no doirasi harakatning sodir bo‘lishi bilan cheklanib qolmay, balki subyektning ichki holati, ruhiy kechinmalari, bilish jarayoni, hissiy munosabati va barqaror vaziyatlarini ham qamrab oladi. Ana shu jihatdan, arab tilshunosligida holat fe’llari (الأفعال الدالة على الحال) tushunchasi muhim ilmiy kategoriya sifatida qaraladi. Holat fe’llari, avvalo, dinamik harakatni emas, balki subyektning ma’lum bir vaqt oralig‘ida davom etuvchi yoki nisbatan barqaror holatini ifodalashi bilan xarakterlanadi. Bunday fe’llar orqali harakatning boshlanishi yoki yakunlanishi emas, balki holatning mavjudligi va davomiyligi asosiy semantik yadroni tashkil etadi. Masalan, bilish, tushunish, sevish, ishonish, xabardor bo‘lish kabi ma’nolar holat fe’llariga xos bo‘lib, ular harakat fe’llaridan semantik jihatdan keskin farqlanadi Komilova, 2026, pp. 141-149).

Psixik holat fe’llari inson ruhiy faoliyatini, ruhiy holatini ifodalaydi. Yoqimli va yoqimsiz tuyg’ular, tinchlik, farog’at, hayajonlanish va ma’yuslanish, dadillik va taraddudlanish, quvonish va g‘azablanish, qo’rquv va shodlanish kabi ijobiy va salbiy hissiyotlar psixik holatlarga kiradi (Ivanov, 1997, p. 13).

Arab tilidagi holat va emotsiya fe’llari semantik jihatdan juda katta leksik sinfni tashkil etadi. Holatni bildiruvchi leksika ma’lum semalarning mavjudligiga ko‘ra turli guruhlarga birlashadi. Bunday guruhlarning miqdoriy va sifat tarkibi murakkab bo‘lib, ularga kiruvchi birliklar soni, ularning to‘liq yoki qisman sinonimligi, giperonim-giponim munosabatlari,

antonimlarning mavjudligi, stilistik qatlamlanish darajasi, ifodaviyligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi. Quyida bizni qiziqtirgan leksik birliklarning eng ko‘p uchraydiganlari keltiriladi. Holat va emotsiyalar ichidan asosiylari ajratilib, ularga sinonimik qatorlar (=) neytral ma’nodan ekspressivroq yoki ko‘proq ishlatiladigan shakldan kamroq ishlatiladigan shaklgacha tamoyili asosida beriladi. Shuningdek, imkon qadar antonimlar (><) yoki giponimlar (^) ham ko’rsatiladi (Zaritovskaya, 2012, pp. 106-112).

Mushtarak semasi "holat", "birlashtiruvchi” semasi “psixik" bo‘lgan holat fe’llari muayyan munosabatni ifodalashiga ko‘ra ikki guruhga ajraladi:

1) Ijobiy munosabat ifodalovchi holat fe’llari;

2) Salbiy munosabat ifodalovchi holat fe’llari.

Insonning ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi holat fe’llari ta’sirchanlik (konnotatsiya) darajasi ortiqligiga, kuchliligiga ko‘ra alohida ahamiyatlidir. Bunday semantik guruhga kiruvchi so’zlar ham xabar (darak), ham ta’sirchanlik ifodalashi, ba’zi hollarda esa ta’sirchanlik darak (xabar) mantiqiy ifodasiga nisbatan ustunligi, ortiqligi bilan farqlanadi (Rasulov, 2008, pp. 102-125).

I. Ijobiy munosabat ifodalovchi psixik holat fe’llari quyidagi semantik guruhlarga kiruvchi til birliklarida quyidagi mantiqiy ifoda bilan kuzatiladi:

= فرح [*fariḥa*] – “xursand bo‘lmoq, quvonmoq”

فرحَ الطالبُ بنجاحهِ في الامتحان - “Talaba imtihondagi muvaffaqiyatidan xursand bo’ldi.”

Bu fe’l insonning ichki quvonch holatini bildiradi va ko‘pincha sababni ko‘rsatish uchun ب predlogi bilan ishlatiladi. Quvonmoq, suyunmoq, sevinmoq, yayramoq, shodlanmoq kabilar umumiy, birlashtiruvchi ma’nosiga ko‘ra sinonimik qatorni hosil qilsa, bir tomondan, ikkinchi tomondan, ular qo‘shimcha ma’no “ohangi”ga, ma’no nozikligiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

= سعد [*saʿida*] - “baxtli bo‘lmoq, mamnun bo‘lmoq”

سعدَ الطفلُ بالهديةِ الجديدةِ - “Bola yangi sovg‘adan baxtli bo’ldi.”

Bu fe’l chuqur mamnunlik yoki baxt hissini bildiradi va ko‘pincha insonning umumiy ruhiy holatini ifodalaydi.

= سرّ [*surra*] - “quvonmoq, mamnun bo‘lmoq”

سرَّ المديرُ بنجاحِ المشروعِ - “Direktor loyiha muvaffaqiyatidan mamnun bo’ldi.”

Bu fe’l ko‘proq rasmiy yoki yozma nutqda ishlatiladi va ichki mamnunlik holatini bildiradi. Mamnun bo’lmoq so‘zida hissiyot ta’sir kuchiga, yoqimli his-tuyg‘u uyg‘otishiga ko‘ra xarakterlanadi. Aniqrog‘i, mamnun bo’lmoq so‘zi ma’nosiga, talaffuziga ko‘ra tinglovchida yoqimli kechinma hosil qilishi bilan farqlanadi. Suyunmoq, sevinmoq, quvonmoq, yayramoq so‘zlari ko‘proq jonli nutqqa, shuningdek, poetik uslubga xos bo‘lib, nutqda ko‘p qo‘llanadi. Shodlanmoq esa asosan kitobiy bo‘lib, nutqda nisbatan kam qo’llanadi.

= اطمأنّ [*iṭmaʾanna*] – “xotirjam bo‘lmoq, tinchlanmoq”

اطمأنَّ الأبُ على صحةِ ابنهِ - “Ota o‘g‘lining sog‘lig‘i haqida xotirjam bo’ldi.”

Bu fe’l ruhiy tinchlik va tashvishning yo‘qolishini bildiradi; ko‘pincha على predlogi bilan ishlatiladi. “Tinchlanmoq”: ovunmoq, yupanmoq, tinchimoq, tinchlanmoq, xotirjamlanmoq. Ushbu mantiqiy ifodali holat fe’llari ham insonning bir holatdan — notinchlik, tashvish-musibat, ko‘ngli g‘ashlikdan, o‘z-o‘ziga fikran yoki tashqi vositalar ta’sirida tinchlangan, hovuridan tushgan, xotirjam holatga o‘tganini ifodalaydi.

= رضي*r* [*raḍiya*] – “rozi bo‘lmoq, qoniqmoq”

رضي الأستاذُ بعملِ الطالبِ - “Ustoz talabaning ishidan rozi bo’ldi.”

Bu fe’l biror natija yoki harakatdan qoniqish holatini ifodalaydi va ko‘pincha ب predlogi bilan keladi. “Rozi bo‘lmoq”: ko‘nmoq, unamoq; yurmoq. “Rozi bo‘lmoq” mantiqiy ifodali holat fe’llari shu semasiga ko‘ra nisbiy mustaqil bo‘lib, shaxsning muayyan ish-jarayon, harakat-faoliyat va shu kabilarning amalga oshishi, bajarilishi, maqsadga muvofiq hal qilinishi uchun ular xohishning bildirilishini, roziligini ma’qullashini, talab, shart, iltimosga unashini ifoda etadi. Ya’ni, bu holat fe’llarining markaziy-xabar tashuvchi semasida insonning muayyan faoliyat yoki talab, shart kabilarning bajarilishiga bo‘lgan ijobiy munosabatining ifodalanishi aks etadi. “Rozi bo‘lmoq” ma’noli fe’llarga xos xususiyat inson hissiy holatini tub fe’l – til birligi shaklida bildirishidir.

= أحبّ [*aḥabba*] – “sevmoq, yaxshi ko‘rmoq”

أحبَّ الطفلُ القراءةَ منذُ الصغرِ - “Bola kichikligidan kitob o‘qishni yaxshi ko’radi.”

Bu fe’l ijobiy hissiy munosabatni, ya’ni sevish yoki yoqtirishni bildiradi.

“Xursandlik" mantiqiy ifodali holat fe’llari, asosan, inson ruhiy holati, hissiyoti - yoqimli ichki kechinmasi, uning faoliyati va tashqi hodisalardan qattikq ta’sirlanishi, nihoyatda mamnun, shod kabi holatda bo‘lishi kabilarni ifodalaydi.

II. Salbiy munosabat ifodalovchi ruhiy holat fe’llari quyidagi semantik guruhlarga kiruvchi til birliklarida quyidagi mantiqiy ifodada qatnashadi:

= خاف [*khāfa*] – “qo‘rqmoq”.

خافَ الطفلُ من الظلامِ - “Bola qorong‘ilikdan qo’rqdi”

Bu fe’l qo‘rquv holatini bildiradi va ko‘pincha qo‘rquv sababini ko‘rsatish uchun من predlogi bilan ishlatiladi.“Qo‘rquv”: qo‘rqmoq, hayiqmoq, cho‘chimoq, seskanmoq, hadiksiramoq, xavfsiramoq, xavotirlanmoq, xavflanmoq, bosinqiramoq, zirillamoq. O‘zbek tilida “qo‘rquv” mantiqiy ifodali holat fe’llari inson, ba’zan hayvon ruhiy holati bilan bog‘lanib, ularning predmetga, ta’sir qiluvchiga bo‘lgan salbiy munosabati, undan ta’sirlanishi natijasida yuz bergan ruhiy javob harakatlarini anglatadi. Bu holat fe’llarida insonning predmetdan hayiqishi,

cho‘chishi, qo‘rquvi — unga nisbatan ehtiyot, jiddiy munosabatda bo‘lishi kabi ruhiy holat ifodalanadi.

= فزع [*fazi ʿa*] – “vahimaga tushmoq, qo‘rqib ketmoq”

فزعَ الناسُ من الصوتِ المفاجئِ - “Odamlar kutilmagan tovushdan vahimaga tushdi.”

Bu fe’l to‘satdan yuzaga kelgan kuchli qo‘rquv yoki vahimani ifodalaydi.

= قلق [*qaliqa*] – “tashvishlanmoq”

قلقَ الطالبُ قبلَ الامتحانِ - “Talaba imtihon oldidan tashvishlandi.”

Bu fe’l ichki bezovtalik va xavotir holatini bildiradi.

= اضطرب [*iḍṭaraba*] – “hayajonlanmoq, bezovta bo‘lmoq”

اضطربَ الرجلُ عندما سمعَ الخبرَ - “Erkak xabarni eshitganda bezovta bo’ldi.”

Bu fe’l ruhiy beqarorlik yoki kuchli hayajon holatini ifodalaydi.

= غضب [*ghaḍiba*] – “g‘azablanmoq”

غضبَ الأبُ من تصرّفِ ابنهِ - “Ota o‘g‘lining harakatidan g’azablandi.”

Bu fe’l kuchli norozilik yoki g‘azab hissini bildiradi va ko‘pincha من predlogi bilan keladi.“Jahli chiqmoq” mantiqiy ifodali holat fe’llari ham darak (xabar), ham ta’sirchanlik (konnotatsiya) bildirishiга ko‘ra ajralib turadi. Ayniqsa, olaymoq, uqraymoq, g‘azablanmoq, qahrlanmoq, shiddatlanmoq so‘zlarida ta’sirchanlik (pragmatika) xabarga nisbatan ortiqroq. Umuman, bu so‘z ma’nolarida belgi darajasi juda kuchli. Qahrlanmoq, shiddatlanmoq so‘zlari kitobiy-she’riy uslubga xos.

= حزن [*ḥazina*] – “g‘amgin bo‘lmoq”

حزنَ الرجلُ لفقدانِ صديقِهِ - “Erkak do‘stini yo‘qotganidan g‘amgin bo’ldi.”

Bu fe’l ruhiy qayg‘u yoki qayg‘uli holatni ifodalaydi. Bunday fe’llar insonning salbiy munosabatini kuchli darajada ifodalashga ko‘ra ajralib turadi. Bunday holat fe’llari inson faoliyatini, g‘ayrati, harakati-holatini kuchaytiradigan - shunga faol ta’sir qiladigan hissiyotni ifodalaydi. Ya’ni, bu holat fe’llarida insonning salbiy ta’sirlanishi (ijobiy bo’lishi ham mumkin) natijasida tez, birdan yuz bergan, nihoyat darajada kuchli, jo’shqinlik bilan o‘tadigan qisqa muddatli hissiy holat - g‘azablanish, jahllanish kabilar kuzatiladi. Shunga ko’ra bu fe’llarni g’azablanish ma’nosini ifodalovchi holat fe’llari deyish mumkin.

Klassik arab grammatikasida holat fe’llari alohida terminologik birlik sifatida qat’iy shakllanmagan bo‘lsa-da, ularning semantik mohiyati yetuk grammatiklar tomonidan aniq sezilgan va izohlangan. Xususan, Sibavayh fe’llarni tahlil qilish jarayonida ayrim fe’llarning harakatdan ko‘ra holatni ifodalashini qayd etib, ularni davomiylik va barqarorlik belgisi bilan tavsiflaydi. Uning ta’kidlashicha, bunday fe’llar zamon shakliga ega bo‘lsa-da, ular orqali ifodalangan mazmun vaqt bilan cheklanib qolmaydi, balki holatning doimiyligini aks ettiradi.

Masalan:

عَلِمَ زَيْدٌ الحَقَّ – Zayd haqiqatni bildi.

Mazkur jumlada ‘alima fe’li tashqi harakatni emas, balki subyektning bilim holatiga ega bo‘lganini bildiradi. Bu bilim holati esa vaqtinchalik emas, balki barqaror semantik xususiyat sifatida talqin qilinadi (Sibavayh, 1999, pp. 112-118).

Ma’lum bir ma’noni bildiradigan fe’llar til tizimiga qarab so‘z yasalishi va so‘z shakllarining o‘zgarishida o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, bir fe’l asosidan qancha yangi so‘zlar hosil bo‘lishi, bu so‘zlarning qanday shakllarda yasalishi, fe’lning qanday tuslanishi, ayrim shakllarning umuman ishlatilmasligi yoki aksincha, bir xil ma’noni bildiruvchi grammatik shakllarning ko‘p bo‘lishi kabi holatlar shular jumlasiga kiradi. Arab tilida holat va hissiyotlarni bildiruvchi fe’llar ham bundan mustasno emas. Ushbu guruhga kiruvchi fe’llarni grammatik jihatdan tahlil qilish ularning o‘ziga xos umumiy belgilarini ko‘rsatadi.

“Hissiyot” va “holat” ma’nosini bildiruvchi fe’llar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pchiligi oddiy, yasalmagan fe’llar hisoblanadi. Ular arab tilidagi fe’llarning birinchi shakliga (eng sodda fe’l shakli) kiradi. Bu shakldagi fe’llar odatda uchta asosiy undosh harfdan tashkil topadi. Shuningdek, bu fe’llarning katta qismi birinchi shakl fe’llarining kamroq uchraydigan turiga kiradi. Bu turdagi fe’llarda o‘tgan zamonda o‘rtadagi harf “i” tovushi (kasra) bilan o’qiladi. Bu xususiyat ularni birinchi shakldagi boshqa fe’llardan farqlaydi. Chunki harakatni bildiruvchi ko‘pchilik fe’llarda “a” tovushi (fatha) ishlatiladi, biror sifat yoki holatga ega bo‘lishni bildiruvchi fe’llarda esa o‘rtadagi harf “u” tovushi (damma) bilan keladi. Shu sababli holat va hissiyotlarni bildiruvchi fe’llar arab tilida o‘ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida guruhni tashkil qiladi (Zaritovskaya, 2012, pp. 106-112).

Xulosa. Arab tilida holat va hissiyotlarni bildiruvchi fe’llar boshqa semantik guruhlarga kiruvchi fe’llardan leksik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Birinchidan, bu fe’llar ko‘p sonli va murakkab leksik guruhlarga birlashadi. Ushbu guruhlar ichida sinonim (ma’nodosh) va antonim (qarama-qarshi ma’noli) munosabatlar, shuningdek umumiy va xususiy ma’no munosabatlari kuzatiladi.

Ikkinchidan, bu fe’llar ayrim grammatik xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Masalan, ular o‘tgan zamonda o‘rtadagi harf “i” tovushi (kasra) bilan, hozirgi zamonda esa “a” tovushi (fatha) bilan kelishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, masdar shaklining ma’lum bir modeli faol ishlatiladi, fe’l asosidan hosil bo‘ladigan shakllar tizimi esa ko‘pincha to‘liq bo‘lmaydi. Bundan tashqari, bunday fe’llardan ikkinchi va to‘rtinchi shakl fe’llarini hosil qilish imkoniyati mavjud, boshqa shakllar esa nisbatan kam uchraydi. Ushbu xususiyatlarni o‘rganish qiyosiy leksikologiya va lug‘at tuzish ishlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bu bilimlar arab tilini o‘qitish jarayonida ham qo‘llanishi mumkin. Bunday tadqiqotlar arab tilida so‘zlashuvchilarning til orqali dunyoni qanday qabul qilishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rasulov, R. (2008). The semantic composition of Uzbek verbs. O’zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi. – Tashkent: Fan. – 142 p. (in Uzbek)

2. Ibn Hisham. (1985). The Enricher of the Intelligent, Independent of the Books of the Arabs. Mughni al-Labib ‘an Kutub al-A‘arib. – Beirut: Dar al-Fikr. – 234 p. (in Arabic)

3. John Lyons. (1977). Semantics. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press. – 368 p. (in English)

4. Komilova, Kh. (2026). The usage of stative verbs in contemporary Arabic language materials. Arab tili grammatikasida holat fe’llarining zamonaviy til materiallarida qo‘llanishi. – IOI Journals Masters List. – P. 141-149. https://phoenixpublication.net/index.php/YRIF/article/view/9217/9030 (in Uzbek)

5. Makhmudov, N. (2008). Language and meaning. Til va ma’no. – Toshkent: Fan. – 230 p. (in Uzbek)

6. Maslov, Y.S. (1998). Introduction to Linguistics. Vvedenie v yazykoznanie. – Moscow: Vysshaya shkola. – 213 p. (in Russian)

7. Sibawayh. (1999). The Book. Al-Kitab. – Beirut: Dar al-Kutub al-‘Ilmiyya. – Vol. 1–4. – 118 p. (in Arabic)

8. Wright, W. (1896). A Grammar of the Arabic Language. – Cambridge: Cambridge University Press. – 469 p. (in English)

9. Zaritovskaya, V. (2012). The lexico-grammatical category of Arabic verbs denoting states and emotions // RUDN Bulletin: Theory of Language. Semiotics. Semantics. Leksiko - grammaticheskaya kategoriya glagolov arabskogo yazika, virajayushix sostoyaniya i emotsii. // Vestnik RUDN, Teoriya yazika. Semiotika. Semantika. – Pp. 106-113. (in Russian)